

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2026- yilning I- choragida amalga oshirilgan ishlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘i T.Ganiyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga o‘tilishi takidlandi.

Kun tartibiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Miiliy statistika qo‘mitasining 2026-yil 1-mayda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan 2-sonli Hay‘at yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha to‘xtalib o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son hamda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yo‘lida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” PF-22-son Farmonlarini ijrosini ta‘minlash qo‘mita hay‘ati tomonidan alohida ta‘kidlanganligi aytili.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘risida” PF-117-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorlshigi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘risida” PF-51-son Farmoni ijrosi.

Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning mamlakatni rivojlantirishdagi hissasini tavsiflovchi statistik materiallarning chuqur kompleks tahlili uchun milliy statistika organlarining roli va javobgarligini oshirish hamda statistika sohasida islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tizimda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Miliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarori ijrosiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar muhokama qilindi.

Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2026- yil yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Jumladan, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining yalpi hududiy mahsuloti hajmi 12 495,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025-yil bilan taqqoslaganda 12,9 foizga o'sdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 2026- yilning yanvar-mart oylarida 7 580,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 107,4 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 2 008,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025-yilga nisbatan o'sish sur'ati 102,4 foizga yetdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2025- yilga nisbatan 123,8 foizni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9 313,2 mlrd. so'mni, 2025-yilga nisbatan o'sish sur'ati 116,6 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 4 660,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025-yilga nisbatan 135,1 foizga yetdi, hamda Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 2026- yilning yanvar-mart oylarida 201,1 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 94,7 mln. AQSH dollarini va import 106,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Yig'ilishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2026- yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijro holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-sonli qarori talablari asosida ommaviy axborot vositalarida statistika faoliyatiga oid 32 ta televideniya, 19 ta radio, 12 ta gazeta hamda boshqarmaning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda 381 ta statistik ko'rsatkichlar chop etildi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan, sohaga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tadbirkorlik subektlariga yetkazish yuzasidan muntazam ravishda profilaktika ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, 2026-yilning yanvar-mart oylari davomida 1176 ta respondentlarga tushuntirish ishlari olib borilgan.

Undan tashqari, respondentlar va statistika organlari o'rtasida amaldagi qonunchilikda belgilangan munosabatlarni yanada kuchaytirish orqali samarali hamkorlik o'rnatish, kelib tushgan savol, taklif va muammolarni o'rganish, mavjud muammolarni tezkor ravishda bartaraf etish va kelgusida oldini olish maqsadida, hududiy statistika organlari tomonidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali respondentlar uchun tushuntirishlar tashkil etiladi. Ushbu maqsadlar uchun ijtimoiy tarmoqlar, xususan "Telegram" tarmog'ida boshqarmada 1 ta, har bir tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 17 ta doimiy faoliyat olib boradigan maxsus guruhlar tashkil etilib, ularga jami 3 938 ta respondentlar jalb etildi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi va uning quyi tizimlari tomonidan profilaktika ishlarini yanada kengaytirish maqsadida respondentlarga ularning huquq va majburiyatlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish bo'yicha mahalliy ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta va jurnallar) orqali 54 ta chiqishlar tashkil qilindi.

Boshqarma tomonidan PQ-2881-son Qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida har oyning juma kunlari ijro hujjatlari holati yuzasida 3 ta bayonnomalar rasmiylashtirilgan. Yig'ilish yakuni bilan tasdiqlanayotgan bayonnomalari Qo'mita tomonidan berilgan namuna asosida shakllantirilmoqda. Nazorat xujjatlari bayonlarda ko'rsatilib, ijro holati doimiy nazoratga olingan.

2026 yil I choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi markaziy apparatiga jami 417 ta hujjat kelib tushgan. Shulardan, 270 tasi yuqori turuvchi tashkilotlardan, 147 tasi vazirlik va idoralardan hamda 20 tasi XDFU hujjatlar kelib tushgan. Ushbu korrespondensiyalar "edo.ijro.uz" dasturiga kiritilgan, ijrosi kunlik nazoratga olingan bo'lib, boshqarmaning 35 ta buyruqlari ishlab chiqildi va ijroga qaratildi.

Milliy statistika qo'mitasiga 2026 yil I choragida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 31 tani tashkil etib, ularning 7 (22,6 %) tasi jismoniy shaxslar, 24 (77,4%) tasi yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

Shundan, 18 ta murojaat sayyor qabuldan og'zaki murojaat, 13 tasi to'g'ridan - to'g'ri kelib tushgan murojaatlardan iborat.

Yig'ilish so'nggida statistika faoliyatini tashkil etish, tuman (shahar) statistika bo'limlari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar muhokama etilib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.